

MILLIY SOZLARIMIZ - FAXRIMIZ

Maryam Mirzaeva,
A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat
pedagogika instituti, Musiqiy
ta'lim kafedrası o'qituvchisi
Yu.O'rozboeva,
1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy sozlarimiz tarixi va yosh avlodni tarbiyalashda ularning roli to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Shashmaqom, diapozon, pardalar, melizmlar.

San'at turlari orasida musiqa alohida ajralib turadi. Insonning o'y xayollari, ichki kechinmalari, ruhiyati va tafakkuriga ta'sirini ko'z bilan ko'rib emas, balki quloq bilan eshitib fikrlaymiz.

Musiqa san'ati eng insoniy san'at turlaridan biri bo'lib azaldan biz bilan birga shodlik, g'am-alam tuyg'ulari, xayajonlarimizda yashab keladi. Buyuk mutafakkirlarimiz Abdurahmon Jomiy musiqa san'atining katta psixologik ahamiyatini uning tinglovchilariga qayg'u yoki quvonch, ma'yuslik yoki umid, tushkunlik yoki ko'tarinkilik kabi ohanglarining tinglovchiga ta'siri haqida o'rganib chiqadi va uni 4 guruhga bo'ladi.

1. Shijoat va jasurlik uyg'otuvchi ohanglar,
2. Xursandchilik va quvonch uyg'otuvchi ohanglar
3. Qayg'u va mung uyg'otuvchi ohanglar
4. Qayg'u va ma'yuslik aralashgan shodlik va zavq uyg'otuvchi ohanglar.

Musiqa san'ati ibtidoiy jamiyatda xalq turmushi va mehnat jarayoni bilan uzviy bog'langan. Bunda sozlarimiz keng qo'llanilgan. Masalan, Navro'z tantanalarida sozlarimiz tanbur, dutor, nay, chang, rubob, doiralarda ajoyib kuy va qo'shiqlar ijro etishgan. Milliy sozlarimiz uzoq o'tmishda paydo bo'lgan. Ma'lumotlarga qaraganda, dastlabki musiqiy sozlar eramizdan avvalgi XIII ming yillikda dunyoga kelgan, degan taxminlar bor. Musiqachilikda dastlab urma zarbli cholg'ular paydo bo'lgan, chunki

qadimgi mehnat qo'shiqlari ishning ritmik tuzilishi bilan bevosita bog'liq. Keyinroq xalq ustalari tomonidan qamish yoki bambuk poyasidan surnay, hushtak keyinchalik esa naylar, naysimon hushtaklar, shiqildoq, chiltor, arfa, lira kabi asboblar yasalgan. Keyinchalik esa, torli-mizrobli va torli-kamonchali musiqiy sozlarimiz paydo bo'lgan. Ulardan saroy ayonlarining marosimlarida, harbiy yurishlarda foydalanilgan.

Milliy sozlarimiz ko'p asrlik taraqqiyot davomida o'ziga xos xususiyatlarini, tovush tusini saqlab qoldi. O'ziga xos tuzilishi tufayli nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g'ijjak, qo'bis an'anaviy tarzda bizgacha yetib kelgan.

Musiqaning jamiyatda tutgan o'rni haqida mutafakkirimiz Abu Nasr Muhammad Farobiyning mashhur asari "Musiqqa haqida katta kitob" asarida yozilgan. Farobiy o'zining kitobida barcha milliy sozlarimizga ta'rif berib, nay quvurida havoning damli harakati orqali tovush hosil qilinadi, chang esa ochiq torlarning tebranishi orqali ohang hosil qiluvchi cholg'ular turiga kiradi. O'sha davrda changning 15 ta tori bo'lib ular diatonik sozlangan va 2 oktava oralig'iga teng tovush qatoriga ega bo'lgan deyiladi. Boshqa sozlar tanbur, dutor, rubob, ud cholg'usi ansambl ijrochiligida yetakchi rol uynagan. Abu Nasr Farobiy cholg'ushunoslik faniga asos solib cholg'ularimizni o'rganib chiqqan. O'sha davrda yashagan buyuk olim Ibn Sino Farobiyga juda yaqin bo'lgan va o'zining davolash kitobida tanbur, dutor, rubob, chang va arfa sozlari haqida yozib o'tgan. Yana bir mutafakkirimiz Safiyuddin Urmaviy musiqqa ilmi tizmini rivojlantirdi. U kishi usta bo'lib bir qancha sozlarda ijro etgan ijrochi edi.

XIX-asrning 2-yarmiga kelib, O'rta Osiyo Rossiya tomonidan istilo qilinadi. Turkistonning Rossiyaga qo'shib olinishi bilan Yevropa madaniyati kirib keladi. Shaharlarda madaniy xordiq chiqarish uchun puflab chalinadigan sozlar orkestrlari konsertlar berib turardi. Ular shahar bog'larida, ijro etishardi. Milliy sozlarimizni o'rganish, o'zbek xalq musiqasini notalashtirish ularni qayta ishlash bo'yicha dastlabki tajribalar

o'tkazila boshladi. Bunday musiqachilar orasida Turkiston o'lkasi musiqa hayotida sezilarli iz qoldirgan N.Mironov, Eyxgorn, Leysiklar bor edi. Eyxgorn o'zbek cholg'ularini toplagan folklorshunoslardan bo'lib musiqa nazariyasiga ham katta hissa qo'shgan. XIX-asr oxiri XX-asr boshlarida milliy sozlarimizda ijrochilik san'atining rivojlanishi yangi ijtimoiy-siyosiy sharoit hamda Yevropa madaniyati ta'siri bilan bog'liq bo'ladi. Rus xalq cholg'ulari asoschisi A.Andreev ijodiga tayangan holda, milliy sozlarimizni ta'mirlash, diatonik temperatsiyalanmagan tovush qatoriga xos cholg'ulardan, xromatik 12 ravon temperatsiya asoslangan teng yarim pardali ta'mirlangan cholg'ularni o'tishni asosiy vazifa qilib belgilab olgan ustalar usta Usmon Zufarov, I.Akbarov, A.I.Petrotsyans boshchiligida milliy sozlarimizni takomillashtirish ishlari boshlandi. Ustalardan Matyusuf Xarratov, Usta Tohirjon Davlatov, Usta Qayum, Romanchenko, Didenko kabi ustalar A.I.Petrotsyans boshchiligida laboratoriyada milliy sozlarimizni takomillashtirishda juda katta mehnat qilishgan. Dutor bas, Rubob prima kabi sozlarimiz yangidan yaratilgan hisoblanadi. Barcha milliy sozlarimiz hozirda takomillashtirilgan holatda ishlatilib kelmoqda.

Milliy sozlarimizdan ruboblar oilasi, changlar oilasi, kamonchalilar oilasi, puflab chalinadigan sozlarimiz barchasi butun bir orkestrni tashkil qilishda va dunyo xalqlari musiqasini ijro etishda hech ham ikkilanmasdan ishlatilib kelinmoqda. Milliy sozlarimizni ardoqlab, asrab mehr-muhabbat bilan ijro etishda va ularni yosh avlodga o'rgatib borish uchun sozlarimizni mukammal o'rganib olishimiz kerak. Musiqa maktablarida yosh avlodga milliy sozlarimizni chuqur o'rgatishda ularda ijro mahorati ko'nikmalarini hosil qilishda yillar davomida ustozlar o'z bilimlarini o'rgatib borish uchun ustoz-shogird an'anasiga tayangan holda ish olib borishimiz kerak. Tarixni bilmay turib, yangilik yaratilmaydi. Musiqa o'qituvchilari dars berish jarayonida qo'lidagi sozining kelib chiqish tarixini, uning rivojiga hissa qo'shgan ulug' ustoz murabbiylarni, mohir ijrochilarni ijodlaridan

shogirdlarni bahramand qilib uni o‘z Vataniga, soziga, ustozlariga bo‘lgan ixlosini, mehrini orttira borishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. G‘ulomqodir Ergashev Afg‘on rubob darsligi. Toshkent 2004.
2. Nig‘matjon Sharipov Rubob prima darsligi. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot -matbaa ijodiy uyi.
3. A.Odilov O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi. Toshkent 1986.
4. N.Yuldasheva, N.Raxmatova O‘zbek musiqa adabiyoti.